

IQTISODIY O'SISHNI BARQARORLASHTIRISHDA INVESTITSIYA JALB QILISHNING INSTITUTSIONAL, MAKROIQTISODIY VA INNOVATSION TA'SIRLARI

Yuldasheva Umida

TDIU, "Xalqaro moliya"

kafedrası DSc., professor

umida_yu@mail.ru

Negmurodova Mulkiya

TDIU, Moliya Fakulteti talabasi

mulkiyanr@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish jarayonida investitsiya jalb qilishning institutsional, makroiqtisodiy va innovatsion omillar orqali namoyon bo'ladigan ta'siri tahlil qilinadi. Iqtisodiy o'sishning izchil davom etishi, milliy raqobatbardoshlikning kuchayishi va ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi investitsiya oqimlarining samaradorligi hamda kapitalning to'g'ri boshqarilishiga bevosita bog'liqligi asoslanadi. Bundan tashqari, maqolada investitsiyalarning nazariy va statistik asoslari keltirib beriladi.

Kalit so'zlar: investitsiya, iqtisodiy o'sish, innovatsion, iqtisodiyot, investorlar, modernizatsiya, investitsion muhit.

Kirish

Iqtisodiy o'sishning barqarorligi har bir mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sanaladi. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, ijtimoiy farovonlikning oshishi va ishlab chiqarish hajmining izchil ko'payishi ko'p jihatdan mamlakatning investitsiya salohiyatiga, kapitalning samarali jalb etilishiga va iqtisodiy resurslarning to'g'ri boshqarilishiga bog'liq. Jahon xo'jaligi chuqur integratsiyalashgan hozirgi sharoitda investitsiya oqimlari nafaqat kapital qo'yilmalari sifatida, balki zamonaviy texnologiyalar va yuqori samaradorlikni ta'minlovchi innovatsion yondashuvlarni olib kiruvchi strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi investitsiya raqobatini keskinlashtirib, mamlakatlarning investitsion jozibadorligi iqtisodiy siyosatning markaziy mezoniga aylantirmoqda. Xalqaro kapital oqimlarining erkin harakatlanishi iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasiga, ishlab chiqarishning texnik-moddiy bazasiga va mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun investitsiya jalb qilish jarayonining faolligi ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi, yangi texnologik liniyalar joriy etilishi va iqtisodiy samaradorlikning oshishida hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Investitsiya faoliyatining barqaror rivojlanishi institutsional

omillarning mustahkamligiga ham kuchli bog'langan. Mulk huquqlarining himoyasi, shaffof huquqiy muhit, samarali tartibga solish tizimi va barqaror davlat boshqaruvi investorlarning ishonchini oshiradi. Qulay institutsional muhit kapitalning uzoq muddatli oqimini rag'batlantirib, iqtisodiyotda tizimli islohotlarni chuqurlashtiradi va biznes yuritish sharoitlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ushbu omillar investitsiyaning nafaqat hajmi, balki sifatini ham belgilab beradi. Shuningdek, makroiqtisodiy barqarorlik ham investitsiya jalb qilish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Inflyatsiyaning pastligi, foiz stavkalarining maqbulligi, fiskal intizomning mustahkamligi va valyuta bozorining barqarorligi investorlar uchun prognoz qilinadigan iqtisodiy muhit yaratadi. Makroiqtisodiy omillarning uyg'unligi investitsion xavflarni kamaytiradi, kapital resurslarining uzoq muddatli oqimini ta'minlaydi va iqtisodiy o'sishning tebranishsiz, barqaror modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, davlatning iqtisodiy siyosati kapital jalb etishda hal qiluvchi strategik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo'yicha ishlarni yanada kuchaytirish uzoq muddatga mo'ljallangan strategik vazifa hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ham investitsiya muhitini yanada yaxshilash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta'minlashga urg'u berilgan [1].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan investitsiya faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham mamlakatimizda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda investitsiya faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslarini shakllantirish, sohada samarali nazorat mexanizmlarini yaratish orqali investorlar huquqlari himoyasini ta'minlash hamda biznesni moliyalashtirishda qo'shimcha imkoniyatlar yaratish belgilangan [2]. Ushbu qarorni qabul qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad sifatida aholidan investitsiya loyihalariga mablag'larni jalb qilish bo'yicha ommalashib borayotgan amaliyotni huquqiy jihatdan tartibga solish, fuqarolar huquq va manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, shuningdek, investitsiya faoliyatini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirishning shaffof va ishonchli mexanizmlarini joriy etish ko'zda tutilgan.

Respublikamizda xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar va imtiyozlarning keng qamrovli tizimi shakllantirilgan. Bu tizim «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi va «Qimmatli qog'ozlar bozorida

xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunlarga asoslangan. Ushbu qonunlar xorijiy investorlarning teng huquqli va adolatli shart-sharoitda faoliyat olib borishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan investitsiya siyosati nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni oshiradi, balki milliy iqtisodiyotning barqaror va raqobatbardosh tizimini yaratadi, innovatsion iqtisodiyotga o'tishni tezlashtiradi hamda uzoq muddatli rivojlanish uchun mustahkam poydevor bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida investitsiya faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakatning kuchi, ya'ni iqtisodiyotning rivojlanishi va o'sishi mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga bog'liq. Har qanday jamiyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Investitsiyalar iqtisodiy o'zgarishlar, texnika va texnologiya yangil anishi hamda uni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, qolaversa, mamlakat eksport va importiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xorijiy iqtisodchilardan biri bo'lgan Dale W. Jorgensonning "Capital Theory and Investment Behavior" nazariyasi investitsiya qarorlarini kapital qiymatini va soliqqa tortishni hisobga olgan holda tahlil qiladi [3]. O'zbekiston sharoitida ushbu model soliqqa tortish siyosati, huquqiy kafolatlar va investitsion rag'batlar orqali investitsiya talabini shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, IT, avtomatizatsiya va "yashil iqtisodiyot" loyihalariga sarmoya kiritish Jorgenson yondashuvini innovatsion kapitalni hisobga olgan holda kengaytirish imkonini beradi, bu esa investitsiyalarning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Shuningdek, mahalliy iqtisodiyot fanlari doktorlardan biri bo'lgan N. Qo'ziyevaning ilmiy ishlarida xorijiy investitsiyalarning mohiyati to'g'risida: "Kelgusida foyda olish maqsadida kapitalni eksport qiluvchi xorijiy davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslarning kapitalni qabul qiluvchi mamlakatlarga turli ko'rinishidagi boyliklar (ko'char, ko'chmas mol-mulk, intellectual boyliklar va boshqalar) va ulardan olingan daromadlar (foyda, foizlar, dividendlar, litsenziya va komission mukofotlar, royalti, texnik ta'minot va boshqa mukofotlar)ni qo'yilishiga xorijiy investitsiyalar deyiladi [4]. Olimaning fikricha, xorijiy investitsiyalarni turli belgilariga asoslangan holda tasniflash ularning iqtisodiy mohiyatini yanada boyitadi.

Bundan tashqari, ya'na bir iqtisod fanlari nomzodi Q. Xoshimov ilmiy ishida: "chet el investitsiyalari – chet el mulkdorlari tomonidan ma'lum kapitalni bir iqtisodiyotdan mutlaqo boshqa mamlakat iqtisodiyotining qonun bilan ta'qiqlanmagan turli tarmoqlariga aniq va noaniq risklarni hisobga olgan holda, o'z manfaatiga erishish, nisbatan yuqori darajada samara olish maqsadida muayyan muddatga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir" degan mazmunda ta'rif berilgan [5].


Yuqorida keltirib o'tilgan barcha ilmiy ishlar investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri ko'plab yo'nalishlarda yoritilgan bo'lib, ularning barchasi sarmoyaning iqtisodiy modernizatsiya va tarkibiy o'zgarishlardagi hal qiluvchi o'rnini ta'kidlaydi. Shuningdek, investitsion muhitning qulayligi, iqtisodiy erkinlik darajasi va institutsional barqarorlik sarmoya oqimlarining miqdori hamda sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi alohida qayd etiladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi.

Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun kapital jalb qilishning institutsional, makroiqtisodiy va innovatsion ta'sirlarini ko'rib chiqishda induksiya, deduksiya, statistik, iqtisodiy va moliyaviy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi, barqaror iqtisodiy o'sishga erishishi, aholi daromadlarining oshishi, turmush sharoitining yaxshilanishi aksariyat holatlarda milliy iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga jalb etilayotgan investitsiya mablag'larining hajmi va tarkibiga bog'liq.



1-rasm. 2023-2025-yillar oralig'ida O'zbekistondagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) salmog'i

Yuqoridagi ma'lumotlar 2023–2025-yillar davomida O'zbekistonga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasini aks ettirib, mamlakatning investitsion muhitidagi o'zgarishlarni yaqqol ko'rsatib beradi. 2023-yilning dastlabki choraklarida TTXI hajmi qariyb **600–650 million dollarlik** barqaror darajada saqlangan bo'lsa, yil oxiriga kelib qisqa muddatli pasayish kuzatilgan. 2024-yil davomida investitsiya oqimlarida sezilarli tebranishlar kuzatilgan. Yil boshidagi pasayish davrida ko'rsatkich **300–350 million dollargacha** tushgan, biroq keyingi choraklarda qayta tiklanib **700 million dollardan yuqori** darajaga yetgan. Ayniqsa, 2024-yil oxirida TTXI miqdori **1,12 milliard dollar** atrofida qayd etilgan. 2025-yilda investitsiya oqimlari yana o'sish bosqichiga kirib, birinchi choraklarda

600–700 million dollar atrofida bo'lgan bo'lsa, yilning o'rtalariga kelib sarmoya oqimi **850–900 million dollargacha** yetgan. Ushbu ijobiy o'sish iqtisodiy islohotlar, investorlar uchun huquqiy kafolatlar, shuningdek, modernizatsiya va innovatsion loyihalarga qaratilgan ustuvor siyosatning amaliy natijasidir. Investitsiyalarning bosqichma-bosqich ortib borishi O'zbekistonning investitsion jozibadorligi izchil mustahkamlanayotganini, iqtisodiyotning institutsional va makroiqtisodiy asoslari mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.



2-rasm. O'zbekistondagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soni

2025-yil 1-avgust holatiga mamlakatda chet el investitsiyalari ishtirokida jami 16,6 mingta korxona faoliyat yuritmoqda. Shundan 4,1 mingtasi qo'shma, 12,5 mingtasi xorijiy korxona hisoblanadi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan bunday korxonalar soni 16,4% ga oshgan.

Davlatlar kesimida eng ko'p korxona Xitoyga (4,2 mingta) to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarda Rossiya (3,09 mingta), Turkiya (1,9 mingta), Qozog'iston (1,1 mingta), Janubiy Koreya (671 ta), Afg'oniston (622 ta), BAA (369 ta), Hindiston (332 ta) va AQSH (322 ta) joylashgan.

	Ҳажми, млрд сўм	умумий ҳажмга нисбатан, % да	
		2024 й.	2025 й.
Асосий капиталга инвестициялар – жами	273 429,9	100,0	100,0
<i>шу жумладан:</i>			
қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги	24 298,2	4,9	8,9
тоғ-кон саноати	29 635,5	13,9	10,8
ишлаб чиқариш саноати	74 253,4	27,6	27,2
электр энергияси, газ, буг ва конденцияланган ҳаво	38 371,1	14,1	14,0
сув билан таъминлаш, канализация, чиқиндиларни йиғиш ва қайта фойдаланиш	6 980,8	1,2	2,6
қурилиш	20 167,2	8,8	7,4
улгуржи ва чакана савдо, моторли транспорт воситалари ва мотоциклларни таъмирлаш	9 063,7	5,4	3,3
ташиш ва сақлаш	15 244,8	4,8	5,6
яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар	3 814,2	0,9	1,4
ахборот ва алоқа	3 444,8	2,1	1,3
молия ва сугурта фаолияти	1 989,2	1,3	0,7
касбий, илмий ва техник фаолият	2 123,6	0,9	0,8
таълим	4 182,2	1,3	1,5
соғлиқни сақлаш ва ижтимоий хизматлар кўрсатиш	5 829,1	3,0	2,1
санъат, кўнгил очиш ва дам олиш	1 158,5	1,1	0,4
турар-joy қурилишига инвестициялар	21 677,0	4,7	7,9
бошқа фаолият турлари	11 196,6	4,0	4,1

3-rasm. O'zbekistondagi 2024-2025-yillardagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi.

Investitsiyalarni tarmoqlarga bo'lganda umumiy 273,4 trln so'm (2025) hajmidagi investitsiyalarning katta qismi ishlab chiqarish sanoatiga yo'naltirilgan bo'lib, bu soha har yilda ~27–28 % ni tashkil qiladi. Bu ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, qo'shimcha qiymat yaratishga va sanoat ixchamligini oshirishga qaratilgan investor e'tiboridan dalolat beradi. Energetika tarmog'I ham muhim o'rin egallab, 14 % hajmda investitsiya olmoqda. Davlat va investorlar infratuzilmani kengaytirish, energiya ta'minotini mustahkamlash va "yashil energiya" loyihalarini qo'llab-quvvatlashi ham ortib borayotganini anglatadi. Tog'-kon sanoati ham sezilarli darajada investitsiya oladi (10,8 %), bu resurslar ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va mineral xom ashyoning qayta ishlanishi imkoniyatlarini ochadi. Qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar 2025-yilda 8,9 % ni tashkil etib, agrar sohada modernizatsiya va samaradorlikni oshirishga qaratilgan strategik ustuvorlikni aks ettiradi. Qurilish sohasi ham 7,4 % investitsiya tashkil qilib, shu jumladan turar-joy qurilishi uchun ajratilgan sarmoyalar borligi shahar va hududiy infratuzilmani rivojlantirishga bosim borligini ko'rsatadi. Shuningdek, axborot va aloqa sohasi ham ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa xizmatlar kabi kichikroq ulushga ega, lekin bu soha innovatsiya va raqamli iqtisodiyot rivojida uzoq muddatli potentsialga ega hisoblanadi.

Umuman olganda, mamlakat uchun investitsiyalarni jalb qilish faqatgina bitta omilga bog'liq emas, balki mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi hamda innovatsiyalari bir-birini to'ldiruvchi elementlar sifatida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, investitsiyalar mamlakating uzoq muddatli rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa

Xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet el investitsiyalari ishtirokini kengaytirmay turib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish, korxonalarni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatdosh mahsulotni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin emas. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi uning iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishini tezlashtirib, barcha sohalarda ichki imkoniyat va rezervlarni ishga solish, yangi texnika va texnologiya, eksportbop tovarlarni o'zlashtirish, ularni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali davlatimiz iqtisodiy qudratini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.06.2025 yildagi PF-97-son "Mamlakatimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.08.2025 yildagi PQ-255-son "Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan investitsiya faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. <https://www.researchgate.net>
4. Qo'zieva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. – T.: BMA, 2008. – B. 11.
5. Xoshimov Q.B. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va uni takomillashtirish yo'llari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. ol. uch. yoz. dis. avtor. – T.: BMA, 2004. – B. 7.I
6. Investitsiya. Haydarov O'. A., O'zbekiston Respublikasi Oliy va maxsus o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: "YANGI NASHR", 2022. -300b.
7. <https://cbu.uz/uz/statistics>
8. <https://stat.uz>
9. <https://tradingeconomics.com>
10. <https://lex.uz>